

BOLALAR MUSIQA MAKTABLARINING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA SKRIPKA SHTRIXLARINI O‘RGANILISHI

Muxamedov Feruz To‘lqinjonovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti

To‘lqinjon Djurayevich Muxamedov

Ilmiy rahbar-Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi,
yoshlar masalalari va ma’naviy- marifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rin bosari:

ANNOTATSIYA

Maqolada Musiqiy ta’lim jarayonida bolalar musiqa maktablarining boshlang‘ich sinflarida skripka shtrixlarining o‘rganilishi, bunda uning mazmuni, turlari va metodlarini ishlab chiqish to‘g‘risida so‘z olib boriladi.

Kalit so‘zlar: demokratik xuquqiy davlat, ilmiy salohiyat, axloq, odob, nafosat, mehr-oqibat, vatanparvarlik.

“Musiqa hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega”!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat ijtimoiy hayotining turli jabhalarida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, huquqiy jamiyatni barpo etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, ta’lim-tarbiya jarayoni mazmuniga milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini singdirish, o‘quvchilarni milliy qadriyatlar, an'analar va ko‘p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash bilan bir qatorda jahon tajribalaridan unumli foydalanish tamoyillariga ham e’tibor qaratilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2008 yilda nashr ettirilgan “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida o‘zbek musiqa san’atiga va uning hozirgi kundagi dolzarb muammolariga to‘xtalib o‘tganlar. Musiqaga bo‘lgan bunday katta e’tibor mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarmizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosda musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish, bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko‘rsatilgan.

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi, birinchidan, bolalarda kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik, ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ikkinchidan, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra hozirda musiqa maktablarida sharq musiqa meroslari bilan bir qatorda jahon musiqa san'ati chuqur o'rgatilib borilmoqda. Turli jahon musiqiy asboblarining chalish sir - asrорlari chuqur o'rgatilib borilmoqda. Shu jumladan, skripkada ham. Ushbu noyob va murakkab musiqiy asbob o'zlastirish jihatdan juda murakkabdир. Shu sababli, skripkani o'rganish davomidagi har bir bosqich ustoz va shogird zimmasiga alohida ma'suliyat yuklaydi. Kelib chiqqan muammolarni hal qilishda esa o'qituvchidan yuqori tayyorgarlikni, shu bilan birgalikda o'quvchiga ushbu musiqiy asbobni o'zlashtirishdagi eng muhim bosqichlarni (qo'l va barmoqlar joylashuvi, sikripka ijrosining asosi bo'lgan turli shtrixlar va h.k) e'tibor bilan uqtirilishini talab qiladi. So'zimizni skripka asbobi to'g'risida olib borarkanmiz, bu soz haqida ozgina ma'lumotga ega bo'lib olamiz.


Skripka so'zi italyancha "violino" so'zidan olingan bo'lib, torli kamonli musiqa cholg'u asbobi hisoblanadi. Skripkasimon cholg'ular orasida (skripka, alt, violonchel, kontrabas) eng baland registrli va yetakchi cholg'udir. Tarixda skripkaning klassik shakli XV – XVI asrlarda Italiya va Fransiyada yuzaga kelgan. Dunyoga buyuk skripka ustalari XVII – XVIII asrlarda Italiyada A. va N. Amati, J. Gvarneri, A. Stradivari va boshqa skripkaning skripkaning mukammal shakli va nuxxalarini yaratishgan. 18-asrdan boshlab skripka yetakchi yakkanavoz va turli musiqa jamoalarida ishtirok etadigan musiqa cholg'ularidan biriga aylandi. Skripka cholg'usini o'zlashtirish davomida jahon musiqasini o'rganish, undagi asarlarni tahlil qilishga e'tibor qaratish ahamiyatlidir. Sababi, o'quvchi ushbu na'munalarni tinglab, ularni tushinib borishi uning kelajakda to'laqonli musiqachi bo'lib yetishishida yordam beradi. Bundan tashqari, buyuk skripkachilar ijrosini tinglash, ular ijrosidagi video-filmлarni ko'rish juda foydalidir. Sababi, bularning barchasi o'quvchiga o'z sohasiga bo'lgan qiziqishini orttirib, mohir ijrochi bo'lib yetishish maqsadini shakllantirib boradi. Shu bilan birga bularning barchasi yosh skripkachiga kuyning xarakter jihatlarini ochib berishda, unda qo'llanilgan turli shtrixlarni (video-filmлarda) to'g'ri bajarishda aynan nimalarga e'tibor qaratish kerakligini o'rgatib boradi. Ayniqsa, bu kabi o'z ustida ishslash bolalar musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'lim olayotgan yosh skripkachilar uchun juda foydalidir.

Shtix texnikasining mohir egasi bo'lish va uni qoyilmaqom ijro etish skripkachi oldidagi eng muhim vazifa va muammodir. Zamonaviy ijro metodikasining rivojiga L. S. Ginzburgburg va V. Y. Grigoryevlar bundan tashqari, mohir skripka o'qituvchisi A.

I. Yampolskiy va D. F. Oystraxlarning shtrix texnikasi bo‘yicha o‘ziga xos uslub va yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularni chuqur o‘rganib chiqish ijro borasida yuzaga kelgan muammolarini hal qilishga yordam beradi. Unga ko‘ra mavjud bo‘lgan uslublardan tashqari rus skripka maktabining shtrix texnikasi bo‘yicha turli maslahatlar, aniq maqsadga qaratilgan va ijro hamda pedagogik tomondan tasdig‘ini topgan qimmatli yutuqlari bilan boyitish asosiy vazifa qilib ko‘rsatilgan. Chunki, skripkachining ijrochilik qobiliyti ko‘pincha yuqorida ko‘zda tutilgan muammolarni qanday hal qila olishi bilan belgilanadi. O‘ng qo‘lning shtrix texnikasi kuy ta’sirchanligining 90 % ni tashkil qiladi. Bunday vaziyatda ko‘pincha yaxshi o‘zlashtirilmagan shtrix tufayli ijrochida turli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Biroq, inson fiziologik yoki psixologik nuqsonlardan holi bo‘lsa, o‘z ustida ishslash natijasida har qanday shtixlarni mukammal ijro eta oladi. Sababi har bir harakat inson organizmining harakatidan kelib chiqqan holda bajariladi. Odatda noto‘g‘ri o‘rganish, fiziologik jihatdan qo‘l va barmoqlarning no‘to‘g‘ri qo‘yilishi yoki, skripkachi tanasining ma’lum bir harakatini boshqarish yo‘lini topolmagan hollarda shtrix ijrosidagi omadsizlikka olib keladi. Shtrix ijrosi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun esa ilgor badiiy tasavvurga ega bo‘lish kerak. Ya’ni, ichimizda biz erishmoqchi bo‘lgan yuqori saviyadagi ovozni his qila bilishimiz lozim. Agarda bu ichki badiiy tasavvur qanchalik yuqori bo‘lsa, real ijroda ham shunga ko‘ra yaxshi natijalarga erishsa bo‘ladi.

Shtrix va ularning turlari haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yuqorida takidlاب o‘tganimizdek shtrix – bu kompazitsiyaning tasirchanligini ko‘rsatib beradigan, ijrochilikdagi muhim belgidir. Odatda o‘quvchi tanishadigan birinchi shtrix Detache.

DETACHE fransuz tilidan olingan bo‘lib, uzmoq, ajratmoq ma’nolarini bildiradi. Bunda har bir tovush ijrosida komonning yuqori va past tomonga simdan uzilmagan (ba’zida uzilgan) holda alohida harakati bajariladi. Kamonning harakati yumshoq va tekis ijro etilishi talab qilinadi.



LEGATO so‘zi italyan tilidan olingan bo‘lib, bir-biriga bog‘lab talaffuz qilish ma’nosini anglatadi hamda ijrochiga kamonning bir tomonlama harakati orqali bir nechta tovushlarni ijro etilishini bildiradi. Natijada ushbu shtrix yordamida kuyni

istagancha ravon hamda ta'sirchan "kuylash" mumkin. Shu sababli, *Legato* ijochilikda yana bir keng tarqalgan shtrixlardan biri bo'lib, uni doimiy yaxshilab borish talab qilinadi. Ushbu shtrixni quyidagicha o'rganib borish foydalidir:



STACCATO italyan tilidan olinib, uzib-uzib chalish kerakligini anglatadi. Xarakter jihatdan *Martele* shtixiga o'xshash. *Staccatoda* tovush komonni bir tomonlama (yuqori yoki past) yengil silkitish harakati natijasida hosil bo'ladi. shtrixning o'ziga xos badiiy ifoda kuchi yetarlicha keng bo'lib, erkinlik, mardlik, qahramonlik intilishlarini (Vetana – Konsert №5, kondensiyada), vertuozlilik, yorqinlilik, bundan tashqari nafis raqs xarakterlarini ochib beradi (Paganini – Kapris №21, o'rta qism). *Staccato* ustida ishlashda avvalo *Martele* shtrixini juda yaxshi o'zlashtirish talab qilinadi. So'ngra, bir notada butun kamon bilan ketma-ket *Staccato* harakatlarini bajarish va ular sonini ko'paytirib borish lozim.



Bundan tashqari, A.I.Yapolskiy maslahati bo'yicha ushbu shtrixni navbatil bilan ikki va uchta simlarda chalish juda foydalidir.

STACCATO VOLANT shtrixi sekin hamda tez templarda ishlatilishi mumkin.

Asosan skertso xarakteridagi epizodlarda ko'p uchraydi.

Two musical score excerpts. The top one is from Tchaikovsky's Concerto, 3rd movement, marked 'Moderato assai', 'cresc.', and 'н.т.д.'. The bottom one is from Debussy's Sonata, 2nd movement, marked '(Fantasque et léger)', 'p subito', and 'Дебюсси. Соната, ч. II'.

Ushbu shtrixni o'zlashtirish davomida quyida berilgan mashqlarni bajarish foydalidir:



Xulosa qilib takidlashimiz mumkinki, yuqorida ko‘rasatilgan misollarda ko‘rganimizdek, shtrixlardan to‘g‘ri va aniq foydalana olish, ularni yuqori darajada ijro etish asarning nechog‘li muvoffaqiyatli chiqishini ta’minlovchi muhim omildir. Ayniqsa bu holat bolalar musiqa mакtablarining boshlang‘ich sinflarida sezilarlidir. Sababi, skripka cholg‘usini o‘zlashtirayotgan o‘quvchi repertuari yildan yilga shakl va texnik jihatdan murakkablashib, hajm jihatdan tobora yiriklashib boradi. Ularni o‘z vaqtida o‘rganib, belgilangan saviyada ijro etishda shtrixlarning tog‘ri bajarilishi juda muhimdir. Har bir bajarilgan aniq harakat ijro yakunidagi muvoffaqiyatga olib keladi.

Musiqa darslarida o‘qitishning samarali shakl, vosita va usullardan maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarda musiqaga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishga imkon beruvchi omillardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent –“Ma’naviyat”, 2008
2. Rauf Qodirov. “Musiqa pedagogikasi” Toshkent. 2015
3. Rauf Qodirov. “Musiqa psixologiyasi” Toshkent. 2015
4. Rauf Qodirov. “Ommabop musiqiy glossariy” Toshkent. 2014
5. Berlyanchik M.M. “Вопросы музыкальной педагогики”. Москва. 1997
6. Grigoryan L. “Школа игры на скрипке”. Москва.1989
7. Internet ma’lumotlari Wikipedia.com